Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

O'ZBEK XALQ SHEVALARIDA GASTRONOMIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI ("O'ZBEK XALQ SHEVALARI LUG'ATI" MATERIALLARI ASOSIDA)

Kamola Baxtiyor qizi Temirova*
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ kamolabax31@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada "O'zbek xalq shevalari lug'ati" materiallari asosida qayd etilgan gastronomik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda gastronomik birliklar tematik guruhlarga ajratilib, ularning semantik tarkibi, sinonimik va omonimik munosabatlari hamda fonetik variantlari dialektologik va leksikografik nuqtayi nazardan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar

gastronomik leksika, gastronim, dialektologiya, o'zbek xalq shevalari, leksikografiya, sinonimiya, omonimiya, fonetik variant, tematik tasnif, semantik maydon.

DOI: 10.5281/zenodo.21743645

KIRISH. Til xalqning tarixiy tajribasi, moddiy va ma'naviy madaniyati hamda milliy dunyoqarashini o'zida mujassamlashtiruvchi eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. Mazkur jarayonda xalqning oziq-ovqat madaniyati bilan bog'liq leksik qatlam alohida ilmiy qimmat kasb etadi. Chunki gastronomik birliklar faqat muayyan taom yoki mahsulot nomini emas, balki xalqning yashash muhiti, xo'jalik faoliyati, tabiiy-geografik sharoiti, etnik an'analari va madaniy taraqqiyoti haqidagi muhim ma'lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli gastronomik leksikani dialektologik nuqtayi nazardan o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Shevalar har qanday milliy tilning tarixiy shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi til qatlamidir. Ular xalqning asrlar davomida shakllangan til tajribasi, madaniyati va turmush tarzini o'zida mujassamlashtirgan milliy-ma'naviy merosning ajralmas qismi hisoblanadi. Til tizimida shevalar milliy tilning quyi sathi sifatida namoyon bo'lib, muayyan hudud aholisi o'rtasidagi og'zaki muloqotni ta'minlaydigan asosiy kommunikativ vosita vazifasini bajaradi [1.175]. Shu jihatdan ular adabiy tilning rivojlanish manbalaridan biri sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Z. Xolmanova ta'kidlaganidek, "Sheva tilni oziqlantiruvchi ildiz sanaladi", ya'ni dialektlar milliy tilning boyishiga xizmat qiluvchi, uning tarixiy va leksik taraqqiyotini ta'minlovchi muhim manbalardan biridir [2].

O'zbek tilida gastronomik terminologiya bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mazkur birliklarning sheva materiallari asosida leksik-semantik tizimini kompleks yoritishga bag'ishlangan ishlanmalar nisbatan kam uchraydi. Aksariyat tadqiqotlarda gastronomik leksika adabiy til materiallari doirasida tahlil qilingan bo'lib, dialektal qatlamning nominativ imkoniyatlari, semantik taraqqiyoti hamda hududiy variantlari yetarli darajada umumlashtirilmagan. Holbuki, xalq shevalari o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot

bosqichlarini, qadimiy leksik qatlamlarni va milliy madaniyatning o'ziga xos jihatlarini saqlab qolgan eng muhim til manbalaridan biridir.

“O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” o‘zbek dialektologiyasining fundamental leksikografik manbalaridan biri sifatida hududiy nutqda qo‘llanadigan minglab leksik birliklarni qamrab oladi. Ushbu lug‘atda gastronomik birliklar ham salmoqli o‘rin egallab, ular xalqning oshpazlik madaniyati, oziq-ovqat mahsulotlari, taom tayyorlash usullari va ovqatlanish bilan bog‘liq etnomadaniy qarashlarini aks ettiradi. Mazkur birliklarni tizimli ravishda tahlil qilish nafaqat gastronomik terminologiyaning semantik tarkibini aniqlash, balki dialektal nominatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish imkonini ham beradi [3.5].

NATIJALAR. *“O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”* o‘zbek tilining hududiy-dialektal xususiyatlarini tizimli ravishda aks ettiruvchi eng muhim leksikografik manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur lug‘atda xalqning turmush tarzi, moddiy va ma’naviy merosi bilan bog‘liq rang-barang leksik birliklar jamlangan bo‘lib, ular orasida gastronomik mazmundagi terminlar ham alohida o‘rin tutadi. O‘tkazilgan leksik-semantik tahlil natijalari lug‘at tarkibida ellikdan ortiq gastronomik birlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu birliklar semantik yaqinligi hamda nominativ xususiyatlariga ko‘ra bir nechta tematik guruhlarga tasniflanishi mumkin [3].

Tahlil natijalariga ko‘ra, shevalarda qayd etilgan gastronomik birliklarni bir necha tematik guruhlarga ajratish mumkin. Jumladan, taom *nomlari (alachapatir, gumma, dushvara, jabbaz, mush-mush, o‘rosh, salma, sambusa, siqman, tuntarma, uvra, chalma, chegeldek, cho‘zma, sho‘la)*, shirinlik va qandolatchilik mahsulotlari (*novvot, palla, abjush*), ichimliklar (*ayron, chalap, gulunob*), sut va sut mahsulotlari (*derqaymoq, gilagay, palla, ayron*), non va non mahsulotlari (*royi non, tabtab non, alachapatir, chalma*), meva va rezavorlar (*alboli, alvali, alhorat, aylarjon, gulung*), sabzavot va poliz ekinlari (*boyimjon, barang, palavkadi, palavqavoq, noxut*), ziravor va xushbo‘y o‘simliklar (*alapota, nazvay, nano, pudina, hulva*), ta’mni ifodalovchi birliklar (*a:ji, atav, turish, shor, porom*), taom tayyorlash vositalari (*muhpar, tikach, aqlaq, payir, mandir*), oshxona idishlari (*ayaq, dehcha, dugava, tava, takash, tarilcha, tovoq, tovar, dodacha, chapiya*) hamda baliq mahsulotlariga oid birliklar (*ovuldiriq*) alohida tematik guruhlarni tashkil etadi.

Mazkur tasnif shuni ko‘rsatadiki, shevalarda gastronomik terminlar faqat taom nomlari bilangina chegaralanmaydi. Ular oziq-ovqat mahsulotlari, oshxona jihozlari, taom tayyorlash vositalari, ta’m bildiruvchi sifatlar va oziq-ovqat bilan bog‘liq boshqa tushunchalarni ham qamrab oladi. Bu esa gastronomik leksikaning keng semantik maydonga ega ekanligini hamda xalqning kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi [3].

MUHOKAMA. Sheva materiallari tahlili gastronomik terminlar orasida sinonimiya hodisasi keng rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bir xil gastronomik tushunchaning turli hududlarda turlicha nomlanishi dialektal nominatsiyaning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Masalan, **yalpiz** o‘simligi ayrim hududlarda *alapota, nazvay, nano, pudina, hulva* nomlari bilan; **ayron** ichimligi *ayron* va *chalap* shakllarida; **somsa** *gumma* va *sambusa* birliklari orqali; **nuxat** esa *noxut, nohod* va *nahud* variantlari bilan ifodalanadi. Shuningdek, **oshqovoq** ma’nosini bildiruvchi *palavkadi, palavqavoq* va *palavkadu* kabi birliklar ham hududiy sinonimik qatorni hosil qiladi. Bunday sinonimlar gastronomik terminologiyaning hududiy rang-barangligini, xalqning etnomadaniy tafakkurini hamda nominativ imkoniyatlarining kengligini namoyon etadi.

Shevalarda omonimiya hodisasi ham uchraydi. Ayrim birliklar gastronomik ma’no bilan bir qatorda boshqa semantik vazifalarda ham qo‘llanadi. Masalan, *novvot* bir tomondan shirinlik nomini anglatsa, ikkinchi ma’noda «navbat» tushunchasini bildiradi. *Salma* leksemasi ayrim hududlarda «sho‘rva turi», boshqa hududlarda esa «ariq» ma’nosida qo‘llanadi. *Sho‘la* bir ma’noda «shavla»ni, ikkinchi ma’noda esa «yorug‘lik nuri»ni anglatadi. Xuddi shuningdek, *cho‘zma, guja* va *dodacha* birliklari ham turli semantik ma’nolarda ishlatiladi. Bu holat shevalarda semantik taraqqiyot va omonimlashuv jarayonlarining faol kechayotganidan dalolat beradi [3].

Sheva materiallari fonetik variantlarning ham sermahsulligi bilan ajralib turadi. Jumladan, *ayron – eyron – chalap, noxut – nohod – nahud, sambusa – somsa, derqaymoq – qaymoq, dushvara – chuchvara* kabi variantlar bir xil referentni turli fonetik shakllarda ifodalaydi. Bunday variantlar hududiy talaffuz xususiyatlari, tarixiy fonetik taraqqiyot va mahalliy nutq me’yorlari bilan izohlanadi.

XULOSA. “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da qayd etilgan gastronomik terminlar o‘zbek xalqining tarixiy oshpazlik madaniyati, hududiy til xususiyatlari va milliy leksik boyligini aks ettiruvchi noyob til birliklari hisoblanadi. Ularning tematik tasnifi, sinonimik va omonimik munosabatlari hamda fonetik variantlar-

ini o‘rganish gastronomik terminlarning tarixiy taraqqiyoti, hududiy tarqalishi va me’yorlashuv jarayonlarini aniqlashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur birliklarni zamonaviy elektron leksikografiya asosida tizimlashtirish esa gastronomik terminologiyani boyitish, milliy til merosini saqlash va yangi avlod elektron lug‘atlarini takomillashtirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. B. 175.
2. “O‘zbek shevalari, tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari Toshkent. 2022-yil 21-may
3. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1991. –B.3-407.
4. Enazarov T. O‘zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Mahalla va oila, 2021.
5. Шермухамедова Н. А. Илмий тадқиқот методологияси. –Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2014.